

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida
UO'K: 336.71.078.3**

XOLOV NABIJON QAHRAMONOVICH

**TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

Ixtisoslik: 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

Iqtisod fanlari doktori (Doctor of science)
ilmiy darajasini olish

DISSERTASIYA

Ilmiy maslahatchi: i.f.d., prof. U.U.Sharifxodjayev

Toshkent – 2025-yil

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I-BOB.	TIJORAT BANKLARI TIZIMI BARQARORLIGINING MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI.....	14
1.1-§.	Tijorat banklari tizimi va uning evolyutsiyasi xususidagi ilmiy-nazariy yondoshuvlar.....	14
1.2-§.	Tijorat banklari tizimi barqarorligining nazariy asoslari.....	27
1.3-§.	Tijorat banklari faoliyati barqarorligini reyting tizimi asosida baholashning turli usullari va xorij tajribasi.....	47
	Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	62
II-BOB.	TIJORAT BANKLARI, BARQARORLIGI REYTINGINI ANIQLASHDAGI KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH AMALIYOTI TAHLILI.....	72
2.1-§.	Tijorat banklari barqarorligi reytingiga ta'sir qiluvchi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili.....	72
2.2-§.	Tijorat banklari barqarorligi reytingiga ta'sir qiluvchi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili.....	79
2.3-§.	Tijorat banklarini barqarorligi ta'minlovchi aktivlariga ta'sir qiluvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	89
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	101
III-BOB.	BANK TIZIMI BARQARORLIGINING ZAMONAVIY HOLATI VA XORIJ TAJRIBASI.....	104
3.1-§.	Tijorat banklari reytingiga ta'sir qiluvchi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili.....	104
3.2-§.	Tijorat banklarini tizimi barqarorligi ta'minlovchi aktivlarining prognozi.....	116
3.3-§.	Yevropa mamlakatlari tajribasi va uning o'ziga xos uslubiyoti.....	120
	Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	136
IV-BOB.	BANK TIZIMI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	140
4.1-§.	Tijorat banklari faoliyatini reyting tizimi asosida baholashni takomillashtirish.....	140
4.2-§.	Bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasi bilan bog'liq muammolar talqini.....	152
4.3-§.	Bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish.....	160
	To'rtinchi bob bo'yicha xulosa.....	184
	XULOSA.....	188
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	191

Kirish

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon bank tizimida raqobatning kuchayib borishi xalqaro reyting agentliklari tomonidan ularning faoliyatiga to'g'ri baho berish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Banklar faoliyatiga turli tashkilotlarva reyting agentliklari tomonidan to'g'ri baho berish bank xizmatlaridan foydalanish darajasining oshishiga olib kelmoqda. Jahon banki tomonidan har yili bank aktivlari hajmi reytingi ham e'lon qilib boriladi. 2023-yil yakuniga ko'ra mazkur ko'rsatkich bo'yicha kuchli beshlikda Xitoy Xalq Respublikasi banklari Industrial and Commercial Bank of China (ICBC) - \$3.47 trln. AQSh dollari, China Construction Bank Corporation - \$3.02 trln. AQSh dollari, Agricultural Bank of China - \$2.82 trln. AQSh dollari, Bank of China Ltd - \$2.62 trln. AQSh dollari bilan yetakchilik qilgan. Bu esa Xitoy banklarining jahon bozorida turli institutlar bilan raqobatlashish imkoniyatlarini oshirishga hamda ular mijozlari sonining keskin o'sishiga olib kelgan.

Jahon bank tizimida bank risklarini boshqarish, kreditorlarning to'lovga layoqatliligini baholash, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularda inqirozga qarshi kurashda moliyaviy boshqaruvni tashkil etish, raqobat bozorida ustunligini ta'minlash, tashqi investorlarni jalb etish hamda mijozlarning bankka bo'lgan ishonchini oshirishda bank reyting tizimining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Qolaversa, Bazel qo'mitasining bank risklarini boshqarish va bank kreditorlarining to'lovga layoqatliligini baholash bo'yicha yangi talablarini bajarishda reyting tizimi eng muhim omillardan biri sanaladi. Ushbu holat, rivojlanayotgan davlatlarning jahon bank bozorida o'z o'rnini egallashda banklarning reytingini aniqlashdagi ko'rsatkichlar tizimini yanada takomillashtirish borasidagi ilmiy yondoshuvlarga katta e'tibor qaratish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Xususan, jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozdan keyin har bir davlat banklarining faoliyatini tahlil qilishda reyting tizimini yaratish borasidagi ilmiy-tadqiqotlarni olib borilishi, mamlakat bank tizimiga bo'lgan ishonchning ortishiga sabab bo'lmoqda.

Jahonda, mamlakat bank tizimi barqarorligini ta'minlash ahamiyatidan kelib chiqqan holda, mazkur jarayonlarning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish masalalariga oid ilmiy tadqiqotlarga katta ahamiyat qaratilmoqda. Ayniqsa, muammoli kreditlarni samarali boshqarish, kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarni kamaytirish, sof foizli daromadlar salmog'ini kengaytirish, tizimli risklarni boshqarish maqsadida makroprudentsial siyosat yuritish borasidagi muammolar tadqiqi orqali mazkur jarayonlar samaradorligini oshirishga harakat qilinmoqda.

O'zbekistonda hozirgi sharoitda bank tizimi barqarorligini ta'minlashni takomillashtirish, banklar rentabellik darajasini oshirish, risklarni samarali boshqarish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Xususan, banklar kapitallashuv darajasining sustligi, bank sof foizli daromadlari miqdori va rentabellik darajasi bir me'yorda emasligi, kreditlarga ehtimoliy yo'qotishlar uchun yaratilgan zaxira miqdorining yuqoriligi, bank umumiy kapitalining yalpi aktivlarga nisbatining pasayib borishi, yalpi ichki mahsulot hajmida bank yalpi aktivlari, yalpi kreditlari va yalpi kapitali salmog'ining nisbatan pastligi kabi omillar bank tizimi barqarorligini ta'minlashga ta'sir etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli «Raqamli O'zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli «2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida», 2018-yil 9-yanvardagi PF-5296-sonli «O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida», 2019-yil 18-noyabrdagi PF-5877-sonli «Inflatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pulkredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida»gi farmonlari, 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-sonli «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va